

Oriental Journal of Education



METHODOLOGY OF TEACHING CLASSICAL WORKS IN MUSIC LESSONS AT GENERAL SECONDARY SCHOOL

Dilshoda Nusratovna Rakhmonova

Senior Lecturer

Department of Music Education

Termiz State University

Termiz, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Preschool and school education, music education, education reforms, updated curriculum and standards, interactive pedagogical technologies, innovations, national curriculum, children's music and art schools, professional qualifications and teaching skills, music culture.

Abstract: This article presents scientific and theoretical information on the methods and tools for applying pedagogical technologies in teaching classical musical works to upper-grade students of general secondary schools.

Received: 19.11.25

Accepted: 20.11.25

Published: 21.11.25

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI MUSIQA DARSLARIDA MUMTOZ ASARLARNI O'RGATISH METODIKASI

Dilshoda Nusratovna Raxmonova

Katta o'qituvchisi

Musiqa ta'limi kafedasi

Termiz davlat universiteti

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Maktabgacha va maktab ta'limi, musiqa ta'limi, ta'lim islohotlari, yangilangan dastur va standartlar, interfaol pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, milliy o'quv dasturi, bolalar musiqa va san'at maktablari, kasbiy malaka va pedagogik mahorat, musiqa madaniyati.

Annotatsiya: ushbu maqola umumiy o'rta ta'lim maktabi yuqori sinf o'quvchilarida mumtoz musiqa asarlarini o'rgatishda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning usul va vositalari yuzasidan ilmiy-nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ КЛАССИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ НА УРОКАХ МУЗЫКИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Дильшода Нусратовна Рахмонова
 Старший преподаватель
 Кафедра музыкального образования
 Термезский государственный университет
 Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Дошкольное и школьное образование, музыкальное образование, образовательные реформы, обновлённая программа и стандарты, интерактивные педагогические технологии, инновации, национальная учебная программа, детские школы музыки и искусства, профессиональная квалификация и педагогическое мастерство, музыкальная культура.	Аннотация: В данной статье представлены научно-теоретические сведения о методах и средствах применения педагогических технологий в процессе обучения старшекласников общеобразовательной школы произведениям классической музыки.
--	---

Kirish. Maktabgacha va maktab ta'limi tizimida yangi imkoniyatlar hamda islohotlar tufayli barcha, jumladan, ijtimoiy - iqtisodiy sohalarida, shuningdek, musiqa ta'limida ham keskin o'zgarishlar yuz bermoqda.

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egalashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. Endi o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi va musiqa ta'limidam qator yangiliklar, peagogik imkoniyatlar yaratilmoqda.

Boshqacha qilib aytganda zerikarli darslar o'rniga zamonaviy darslarni tashkil etishga ma'suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma'suliyatli, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib, ularning kasbiy malakalari qayta tayyorgalikdan o'tkazilib borilmoqda.

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egalashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul o'quvchilarlarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. Endi o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri kelib, bu davrda pedagoglar ha bir o'tiladigan mavzuni qiziqali interfaol metodlarga asoslangan holda tashkil qilishi maqsadga muvofiq bo'lmoqda.

Mamlakatimizda barcha sohalar qatori musiqa ta'lim tizimida ham keng qamrovli yangilanishlar va ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bunga O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida musiqa madaniyati fanini o'qitishni rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son [3] farmoni asosida qabul qilingan

“O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni¹, 2025 – yilgacha O‘zbekiston sanoatining rivojlanishi konsepsiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda [4] Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” PF-134-son [11] farmoni² va shu bilan birga “Musika” fanining milliy o‘quv dasturida o‘quvchilarning faoliyat turlarini rivojlantirish yuzasidan “Uzluksiz ta’lim tizimida musiqa madaniyati fanini o‘qitish konsepsiyasi”ga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimini kreativ va tartib bilan yondoshuv uyg‘unligini ta’minlash tizimini takomillashtirish ishlari davom ettirilmoqda. Ta’limga qaratilgan qaror hamda farmonlar unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodning iste’dodini har tomonlama kamol toptirish va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizning milliy va jahon musiqalari, musiqa san’atining yuksak namunalarini bilishi va ulardan keng bahramand bo‘lishi uchun zarur sharoitlar yaratish, musiqiy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, bolalar musiqa va san’at maktablarini rivojlantirish hamda zamonaviy moddiy-texnik bazasini shakllantirish, ularni musiqiy madaniyat va san’at sohasidagi yuqori malakali pedagog kadrlar va mutaxassislar bilan ta’minlash ko‘zda tutildi.

Ta’lim mazmunini yangilash, takomillashtirish va sifat ko‘rsatkichlarini oshirish barobarida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich “O‘qituvchi va murabbiylar biz uchun ibrat namunasi, yuksak insoniy fazilatlar timsolidir” o‘qituvchi – murabbiylarning malakasini oshirish, ularning ilm – fan taraqqiyoti bilan hamqadam borishini, ayniqsa barcha sohalarga keng kirib kelgan va qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalar, interfaol usullardan unumli foydalana oladigan, kompyuter bilan erkin muloqot qila oladigan va o‘z faoliyatida, dars samaradorligini ta’minlashga tadbiq eta oladigan darajada tayyorlash (qayta tayyorlash) bugungi kunning muhim vazifalaridandir.

Biz zamonaviy o‘quvchi - ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalar orqali berilayotgan ma’lumot va yangiliklarni puxta egallashi, ularni tahlil qilishi va amalda ko‘rsatib bera olishi lozimdir deb xisoblaymiz! Zero, an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsalar, rivojlantiruvchi ta’lim mezonlariga muvofiq bilimlarni o‘quvchilarning o‘zlari o‘rganishi, tahlil qila olishi, xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishiga yo‘naltirilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan oliy o‘quv yurtlarida tashkil etilayotgan ta’lim tizimi bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘z faoliyatlarida interfaol uslublardan, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalana oladigan, ularni amaliyotga ijodiy va erkin qo‘llay olish malakalarini shakllantirishga ham e’tibor qaratish lozim.

Hozirgi kunda ta’limning barcha bo‘g‘inlarida fanlarning o‘qitilishi, mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘plab o‘quv – uslubiy qo‘llanmalar, tavsiyanomalar, ko‘rsatmalar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning mazmun va mohiyati yoritilgan adabiyotlar ko‘plab yaratilmoqda.

Ta'limga pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan nashr qilingan muhim adabiyotlar va ilmiy – uslubiy ishlar jumlasiga Q.Panjiyev, B.Azimov, Z.Ismailova, N.Kiyamov, G.Sharipova, N.Rejametovalarning ishlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Ushbu tadqiqot ishlarida musiqa san'ati vositasida o'quvchi-yoshlarda kreativ qobiliyatini ro'yobga chiqarish mexanizmlari tadqiq etilgan. Ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish, shuningdek interfaol metodlar yordamida tashkil etish masalalari, uning pedagogik, metodik, tashkiliy jihatlari ilmiy tadqiq qilingan.

Ishlab chiqarishdagi texnologiyada turli materiallarga ishlov berish, tegishli kasb ustalari tomonidan amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiyaning mazmuni esa o'qituvchi, tarbiyachi tomonidan o'quvchiga aqliy, ruhiy, ahloqiy jihatdan turli usulda ta'sir o'tkazishdan iboratdir.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'ldi va turli rivojlanish bosqichlarida o'tib kelmoqda.

Dastlab bu tushuncha 1940-yillardan 1950-yillar o'rtasigacha "Ta'lim texnologiyasi" deb qo'llanilib, o'quv jarayonida audiovisual texnika vositalaridan foydalanishni ifoda qilgan.

Pedagogik texnologiya tushuncha dastlab XX asrning o'rtalarida AQSH da qo'llana boshlagan. Bunda "pedagogik texnologiya" va "ta'lim texnologiyasi" atamalari faqat texnika vositalari yordamida o'qitishga nisbattan qo'llangan edi. O'tgan asrning 50-yillari o'rtasida 60-yillarigacha "Ta'lim texnologiyasi" atamasi qo'llanilib, bunda dasturlashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan.

80-yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb, ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan.

Pedagogik texnologiyalarning ta'riflari

Pedagogik texnologiyaning turli ta'riflari mavjud bo'lib, ulardan ayrtimlarini keltiramiz;

Texnologiya - biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indi (izohli lug'at)

Texnologiya – ishlov berish, axvolni o'zgartirish san'ati, mahorati, qobiliyati, metodlar qig'indisi.

Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonining o'quvchilarva o'qituvchi uchun so'zsiz qulay sharoitlar ta'minlashni loyihalash, tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha hamma detallari o'ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli. (V.M.Monaxov)

Ilg'or pedagogik texnologiyalarning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari nimalarda iborat va ularni ta'lim jarayoniga tadbiq etish qanday natija beradi va ta'lim mazmunini takomillashishiga qanday ta'sir ko'rsatadi degan savol har bir fanni o'qitilishida ko'ndalang qo'yilayotganligi bejiz emas. Fan, texnika va axborot uzatish, almashish texnologiyalarini aql bovar qilmaydigan darajada tez va shiddatli rivojlanish jarayoni o'z navbatida ta'lim sohasida ham an'anaviy metodlarni yangicha zamonaviy va interfaol metodlar bilan boyitib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, interfaol,

modellashirilgan metodlar qaysi jihatlari bilan ustunlik kasb etmoqda? Uning qanday turlari, tarkibiy tuzilishi, o'quv jarayonlarini tashkil etish shakl va vositalari, ilgari mavjud bo'lgan o'qitish (ta'lim) metodlaridan nimasi bilan farqlanadi, uning samarasi nimalarda o'z isbotini topadi va uning monitoringi, baholash tizimi qanday olib boriladi degan savollarga har bir o'quvchi-murabbiy va pedagoglar tayyor bo'lishlari ular oldiga qo'yilayotgan eng muhim ijtimoiy buyurtma ekanligini anglash va bu savollarga javob berishga to'g'ri keladi.

Ta'lim jarayonini tashkil etuvchi, dars mazmuni va sifat samaradorligini ta'minlovchi o'qituvchi – murabbiylarning kasbiy bilimi, ko'nikma malakasiga, ijodkorligiga, tashabbuskorligi, pedagogik mahorati va intellektual salohiyatiga, o'quvchilarni fan bo'yicha bilimlarni egallashiga qiziqтира olishi va eng zarur intilish qobiliyatlarini ro'yobga chiqara olish salohiyatlariga bog'liq bo'lib qolaveradi. Shu narsani ta'kidlash joizki ta'lim – tarbiyaning sifati va samaradorligini ta'minlash o'quvchining o'quv mazmunini o'zlashtirishiga yo'naltirilgan o'quv jarayonining to'g'ri, mazmunli, qiziqarli tashkil etilishi, bu jarayonda o'quvchi – darsda oddiy tinglovchi emas, mashg'ulotni faol ishtirok etuvchisi, mustaqil topshiriqlarni bajaruvchi, mustaqil va ijodiy fikrlovchi, o'z fikr mulohazalarini erkin ifoda eta oluvchi, o'z fikrlarini himoya qila oladigan faol shaxsga aylanishi muhim rol o'ynaydi.

Shuning uchun umumiy o'rta ta'limda faoliyat olib boruvchi o'qituvchilar o'zi dars berayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni texnologiyalashtirilgan shaklda olib borishi, shogirdlarini mazkur faoliyatga tayyorlab borishi lozim bo'ladi. Ta'limga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish bo'yicha amaliy tajribalarni o'rganish, kuzatish va tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, ta'limning deyarli barcha bo'g'inlarida mashg'ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil etish keng tus olmoqda. Bizningcha bu har bir darsda pedagogik texnologiyaning u yoki bu turini qo'llash kerak degan xulosani bermasligi kerak. Ilg'or pedagogik texnologiya qachon samarali bo'ladi, u o'quvchilar uchun qiziqarli, ularni faollashtiruvchi, mustaqil va ijodiy fikrlashga, mushohada qilishga yo'naltira olsa. Buning uchun o'qituvchi pedagogik texnologiyani tanlashda dars mavzusi, tuzilishi, o'quvchilarni qiziqishi, agar musiqa darslari bo'lsa ularni nazariy, amaliy, ijrochilik imkoniyatlarini faoliyat tulari asosida ta'lim jarayonini hisobga olgan holda qo'llashiga to'g'ri keladi.

Musiqa ta'limi darslarida pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad va vazifalar quyidagilarni ko'zda tutadi: Tashkil etish, hamkorlikda (o'qituvchi va o'quvchi o'zaro munosabatlari) ishlash, guruh bo'lib, yakka holda ishlash, har bir o'quvchining faolligini ta'minlash, takomillashtirish, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, nazorat qilish, baholash va hokazo. Fanlarni o'qitish jarayonida har bir o'qituvchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun quyidagi bosqichlarga tayyorgarlik tizimi bo'yicha ish tutishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

Mavzuni aniqlash;

Maqsadni to'g'ri qo'yish, belgilash;

Mavzu yuzasidan o'zlashtirish lozim bo'lgan kalit so'zlarni belgilash;

Vazifalarni 1,2,3,4.... belgilab olish;

Texnologik jarayon senariysini tuzib olish;

Individual ishlash;

Guruh (kichik guruh) va jamoa bo'lib ishlash;

Butun jamoa bilan savol – javob, munozara, klaster, aqliy hujum va boshqalar.

Reglament (vaqt – har bir ta'lim bosqich jarayoni vaqtini to'g'ri tasqimlash);

Baholash; (a'li – 5, yaxshi – 4, qoniqarli – 3,)

Xulosalash; (bugungi mavzuga umumiy xulosa)

Tayyor holdagi texnologiyalar avval tajriba – sinovdan o'tgan va ijobiy (yuqori) samara berganlari o'quv jarayoniga tadbiq etiladi. Hozirgi vaqtda o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish va ayrim fanlarga xos texnologiyalarni qo'llashga ham e'tibor kuchaymoqda. Xuddi shunday holatni musiqa mashg'ulotlarini texnologiyalashtirish tajribasida ko'rish mumkin. Bunga misol qilib ilg'or pedagoglar tomonidan qo'llanilayotgan “Konsert darslari”, “Viktorina darslari”, “Quvnoqlar va zukkolar darsi”, “Musiqiy sayohat”, “Men dirijyor” kabi texnologiyalarni ko'rsatish mumkin.

Yuqorida keltirilgan o'quv mashg'ulotlari sinfdan tashqari yoki to'garak mashg'uloti sifatida o'tilishi va o'zining nazariy hamda amaliy pedagogik texnologiyalari asosida ta'lim samaradorligiga mazmun kiritish imkoniga ega.

Pedagogik texnologiya – ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim jarayoni, vositalari shakl va metodlari majmui. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab, o'quvchilarni kuchi imkoniyatlari, fanni o'zlashtirish darajasi fanni spesifik tuzilishi xususiyatiga moslab shakli va hajmini o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor. O'qituvchining ta'lim jarayoni texnologik metodlar asosida tashkil etishi ko'p jihatdan uning o'ziga bog'liqligi, bilimi ularni har birini tashkiliy tuzilishi xususiyatlarini yaxshi bilishi ta'lim samaradorligi ta'minlashning muhim kafolati bo'ladi. O'qituvchining pedagogik texnologiyalrini qo'llashida ularni mazmunli va samarali tashkil etishga oid bilimlardan yaxshi habardor bo'lishi qo'llanilgan texnologiyalarni dars samaradorligiga ijobiy ta'siri va natijalarni tahlil qilish baholay olish, tegishli xulosalar chiqara olishi, o'z faoliyatiga tanqidiy munosabatda bo'lishi, o'zgalar nazari bilan baholash o'z bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash o'quvchilarni darsda faol ishtirokini ta'minlay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ilg'or, interfaol texnologiyalardan barcha fan o'qituvchilari, shu jumladan musiqa o'qituvchilari yaxshi habardor bo'lishlari zarur. Chunki, ta'lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari fan taraqqiyoti natijasida kengayib bormoqda. Shu jarayonda o'qitishning shakl va usullari takomillashib bormoqda. Natijada inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari ya'ni ta'lim tizimida

ta'lim va tarbiyadan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2022-yil 2-fevralda №PQ-112 sonli "Madaniyat va san'at xohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori a) bandi 2-bet. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.
<https://president.uz/uz/laws> (yuklangan 2025-yil 23-yanvar)

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda Musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3507-sonli qarori. 22-fevral 2018. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
<https://www.Lex.uz>

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.

4.Abdullayev O. Bastakorlik san'ati. – Toshkent, 2016. – 3 b.

5.Абдуллин Э. О начальном этапе музыкального обучения в общеобразовательных школах Японии // Музыкальное воспитание в школе. – Вып. 9. – М., 1984.

6.Абдуллин Э.Б. Теория и практика музыкального обучение в общеобразовательной школе. -М., 1983.

7.Абдуллин Э.Б. Методологический анализ проблем музыкальной педагогики в системе высшего образования: Учебное пособие. - М., 1990.

8.Enstiklopediyasi. T., 2004 y. 31-b

9.O'zbekiston Milliy Enstiklopediyasi. T., 2004 y.548-b

10.Ishoq Rajabov. "Maqomlar". T., 2006 y.246-b

11.Yunus Rajabiy. "Shashmaqom II Rost" T., 1969 y.112-b

12.D.N.Raxmonova "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa savodxonligi" nomli o'quv qo'llanma. Toshkent 2020-yil "Innovatsiya-Ziyo"

13.D.N.Raxmonova "Elektron magnitli musiqiy doska yordamida o'quvchilarning musiqa fanidan bilim darajasini oshirish" nomli uslubiy qo'llanma. Toshkent 2020-yil "Innovatsiya-Ziyo"